

26-MAY

2023



Toshkent tibbiyot akademiyasi



Toshkent davlat stomatologiya instituti

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google
scholar



Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

Toshkent davlat stomatologiya
isntituti

www.tsd.uz

“Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 26-mayda Anjumanda Rostov davlat tibbiyot universiteti, X.A.Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa xalqaro hamda respublikaning nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamkorligida tashkil etilgan konferensiya asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu to'plam tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishdani muammolariga bag'ishlangan.

Keltirilgan dalillar, iqtiboslar va statistik ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun maulliflar mas'uldirlar.

Toshkent - 2023



Bosh muharrir: t.f.d., professor A.Q.Shadmanov

Tahririyat a'zolari: professor F.L. Azizova, t.f.d., professor Sh.A. Boymurodov, professor S.D. Norqulov, professor Z.M. Muxamedova, professor D.T. Norqulov, professor U.M. Abilov, dotsent F.S. Atamuratova, dotsent S.G. Alimova

“TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY FANLARNI
O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI, 2023-yil 26-may.



КИРИШ СЎЗИ



Хурматли анжуман иштирокчилари!

Сўнги йилларда мамлакатимиздаги барча соҳаларни ислоҳ қилишда улкан ишлар амалга оширилмоқда. Шу қатори, бир неча кун аввал барчамиз биргаликда Янги Ўзбекистоннинг янги тахрирдаги Конституциясини қабул қилиш бўйича референдумни ўтказдик. Янги тахрирдаги Асосий қонунимизда “Ўзбекистон – ижтимоий давлат” деган тамойилни мустаҳкамланди. Конституцияда илгари амал қилиб келинган “давлат – жамият – инсон” тамойилини “инсон – жамият – давлат” деб ўзгартирилди, яъни энг аввало инсон манфаатини ҳар нарсадан устунлиги белгиланди.

Янги Конституцияда давлатнинг ижтимоий мажбуриятларига оид нормалар қарийб уч бараварга ортди. Жумладан, фуқароларнинг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд тоифалари уй-жой билан таъминланиши, меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори инсонга муносиб яшашини таъминлашни ҳисобга олган ҳолда белгиланиши, фуқароларнинг тиббий ёрдамнинг кафолатланган ҳажмини давлат ҳисобидан олишга ҳақлилиги ва бошқалар шу қаторга киради. Бошқача айтганда, ижтимоий давлатга хос бўлган барча элементлар Конституциямизда ўз акс топди.

Янги Конституциямизнинг моддалари 128 тадан 155 тага, унинг нормалари эса 275 тадан 434 тага кўпайиб, қарийб 65 фоизга янгиланди. Эски Конституцияда таълимга тегишли 1 модда бўлган бўлса, янги Конституциямизда 3 та модда, хусусан, олий таълимга тегишли алоҳида 1 та модда (51) киритилди.

Шуни қайд этиш лозимки, нафақат Янги Конституциямизнинг, балки жамиятимиздаги ўзгаришлар, амалга оширалаётган ислоҳатларнинг мазмун-моҳиятини халқимизга, ва айниқса

TALABA-YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY FANLARNING O'RNI

Suxrob Dustmurotovich Narkulov

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri,
falsafa fanlari doktori, professor

ANNOTATSIYA

Maqolada globallashtirish jarayonida talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirishda ijtimoiy fanlarning o'rni, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish zarurati masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: globallashtirish, g'oya, mafkura, immunitet, falsafa, milliy g'oya, ijtimoiy fanlar, ong.

АННОТАЦИЯ

В статье освещается роль социальных наук в повышении идеологического иммунитета студентов в условиях глобализации, необходимость преподавания социально-гуманитарных наук в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: глобализация, идея, идеология, иммунитет, философия, национальная идея, социальные науки, сознание.

Bugun globallashtirish jarayoni kechayotgan bir vaqtda, yoshlarga turli xil ma'lumotlarning cheksiz oqimida o'zligini anglash juda mushkul bo'lib bormoqda. Chunki yoshlar tashqi ta'sirlarga tobora ko'proq moyillik bildirayotgani ko'rinmoqda. Bu sharoitda yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiqlik, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash qiyin bo'lib bormoqda. Mana shu vazifalarni amalga oshirishda, shuningdek yoshlarning ongi va qalbi mafkuraviy va ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olishida, ularda mafkuraviy immunitet hosil qilishda va Yangi O'zbekistonning ijtimoiy rivojlanishida fuqarolik pozitsiyasini hamda jamiyat islohotlarida faol ishtirok etish ko'nikmasini shakllantirishda Ijtimoiy fanlarni o'qitish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ijtimoiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi qaysi soha vakili bo'lishidan qat'iy nazar, xususan bo'lg'usi shifokorlarda ham eng avvalo mantiqiy, erkin va mustaqil fikrlay olish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iboratdir.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Biz zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan avlodni tayyorlashimiz kerak. Tabiiy-texnik va ixtisoslik fanlari bunday mutaxassislarni tayyorlash uchun asosiy omil ekani ham shubhasiz.

Ammo yangi avlodni xalq va jamiyat, millat va davlat manfaatlarini ko'zlaydigan, o'zini yurt manfaatlarini bilan birga ko'radigan va islohotlarga daxldorligini, ijtimoiy mas'ulligini sezadigan, yetuk inson etib tarbiyalash uchun ushbu fanlarning o'zi kifoya qiladimi? Yo'q, albatta...

Shunday ekan, ijtimoiy fanlarga e'tibor bermaslik oqibatida dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o'zidan boshqani o'ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona bo'lgan va bugungi kunda chet ellarda "Boy berilgan avlod" deya atalayotgan yoshlar avlodi bizda ham vujudga kelmaydimi?" [1. - 231-234 b.] degan fikrlari bugungi kunda bizdan juda katta e'tiborni talab etadi.

Ijtimoiy fanlar yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, boy tarixiy merosimizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhini, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga, yuksak ma'naviyat sohibi etib tarbiyalashga e'tiborini qaratadi. Agar yuqorida sanab o'tilgan jarayonlarga ahamiyat bermas ekanmiz, unda boqimandalik, mas'uliyatsizlik, beparvolik, diniy ekstremizm, terrorizm kabi salbiy illatlar yoshlarimiz ongu shuurida o'z ifodasini topadi. Bu esa o'z navbatida bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi.

Ijtimoiy fanlar, xususan falsafa va milliy g'oyaning yosh avlodni tarbiyalashda o'ziga xos o'rnini ko'radigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "falsafani bilmaydigan odam meditsina yoki ta'lim, san'at yoki madaniyat sohasi vakili bo'ladimi, bundan qat'iy nazar hayotning, o'z kasbining ma'no-mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun, tarixni taxlil qilish uchun har bir voqeya va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur xulosalar chiqara olishi kerak. Shu bois tarixchi bo'lish uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega bo'lish darkor... dunyoni anglash, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etish yer yuzidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashi, g'oyasi maslak muddaolarini bilish uchun ham falsafa fanini keng va atroflicha o'rganish darkor. Bir so'z bilan aytganda, yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish – davr talabi. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan baxsga kirishish uchun uning qarashlari va g'oyasi, falsafasini ko'proq bilishimiz, kerak bo'lsa, uning o'zidan ham puxtaroq egallashimiz lozim" [2 – 117-119 b.] deya ta'kidlagan edi. Bu bilan yosh avlodning tafakkuri teran,



dunyoqarashi keng, chuqur bilimli bo'lishi muhimligiga e'tibor qaratgan edi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy mezonini bilim, biroq bilimlar har xil bo'ladi. Ularni foyda-ziyonligini ajrata bilish lozim. Bugungi kunda mafkuraviy kurash olib boruvchilar ham bilimga tayanadilar. Lekin ularning maqsadi milliy g'oyani o'ziga singdirmagan, g'oyaviy bo'shliqqa ega bo'lgan, dunyoqarashi mo'rt yoshlarni topib, ularning ongini egallashga harakat qiladilar. Ular yoshlarning e'tiborini tortadigan, ustida chiroyli niqobi bor "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilish, yoyish orqali o'z maqsadlariga yetishishni niyat qiladilar.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida "yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir" [3] deb ta'kidlaydi. Mamlakatimizda yoshlarni ilmiy ma'rifatli, turli sohalarda yetuk mutaxassis, jismonan barkamol inson bo'lib yetishishga keng sharoitlar yaratib berilganini ko'rishimiz mumkin. Mazkur imkoniyatlardan to'la-to'kis foydalanish, jamiyat va davlat uchun fidokor shaxs bo'lish har bir yosh avlodning burchidir. Buning uchun esa, ular avvalo, dunyoviy va kasb fanlarini chuqur o'zlashtirish, shuningdek, o'zbek xalqining mehnatsevarlik, oilani muqaddas bilish, insonlarga mehribonlik, do'stlarga sadoqat, vatanparvarlik kabi tarixan e'zozlab kelinayotgan qadriyatlarni o'zida shakllantirishi talab etiladi.

Mustaqil milliy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri yoshlarni yuksak g'oyaviylik va milliy g'oyaga sodiqlik, yot mafkuralarga qarshi murosasizlik ruhida tarbiyalashdir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" [4 – 119 b.] kerakligi ta'kidlanadi. Demak yoshlarni dunyoqarashida sog'lom e'tiqod, ishonch va milliy qadriyatlarning ustivorligi, yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalash lozim. Bunda yoshlarga milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari bilan qurollantirish, hayot hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga, o'z qarashlarini, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatish, buzg'unchi mafkuralarga har doim murosasiz bo'lishga tayyorlash masalasiga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalarning kirib kelishini oldini olish va ularni yuqotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy himoyaga tayanadi. Mafkuraviy himoya g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikning oldini olish yoki biron-bir xudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Mafkuraviy himoya ta'lim-tarbiya va targ'ibot-



tashviqot tizimi, ijtimoiy fanlarni o'qitish orqali amalga oshiriladi. Sog'lom mafkurani yoshlar ongi va qalbiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham bu jarayonda o'z o'rniga ega.

Xulosa qilib aytganda, mafkuraviy immunitetning mezonlari olam, dunyo haqidagi bilim bo'lib, uni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning ahamiyati juda kattadir. Yuqorida qayd etilgan omillarni, qonuniyatlarni yoshlar hayotiga joriy etish hozirgi kundagi mafkuraviy, g'oyaviy tarbiyaning dolzarb masalasidir.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 231-234.
2. Karimov I.A. Inson, uning huquqlari va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – B. 117-119.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017 yil 19 sentyabr. // <https://president.uz/uz/lists/view/1063>
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2016. – B. 119.
5. Абилов У. Учинчи ренессанс давлат тилига эътибордан бошланади : дис. – 2022.
6. Абилов У. Миллий-маданий меъросимиз бўлган давлат тили ҳақида мулоҳазалар: дис. – 2022.
7. Норкулов Д. Т. Ҳуқуқий онг ва маънавий тарбия//Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 41-44.
8. Norkulov D. et al. Methods for increasing the effectiveness of teaching history. – 2021.
9. Норкулов, С. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари: Монография. Тошкент: Navro 2015 (2015).
10. Норкулов С. Д. Новое общественное сознание в условиях независимого развития Узбекистана//Т.57.Тенденции формирования науки нового времени. – 2015. – С. 84.



CONTENTS

MUNDARIJA

1. Narkulov, S. D. (2023). TALABA-YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY FANLARNING O'RNI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 6-9.

2. Назаров, Қ. Н. (2023). ИЖТИМОИЙ ФАНЛАР ТИЗИМИ ВА ТАЪЛИМИНИНГ ЯНГИЛАНИШ ДИАЛЕКТИКАСИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 10-16.

3. Балтабаева, А. Ю. (2023). НАВЫКИ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА В ВУЗАХ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 17-21.

4. Мухамедова, З. М. (2023). РОЛЬ МЕДИЦИНСКОЙ ГУМАНИСТИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 22-31.

5. Отамуратов, С. (2023). ВАЖНАЯ РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛОГИИ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 32-36.

6. Власова, В. Н. (2023). РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН В ФОРМИРОВАНИИ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 37-39.

7. Abilov, O. (2023). TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA MANTIQUIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING ANAMIYATI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 40-45.

8. Камилов, Ф. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ТИЗИМИДА ИЖТИМОИЙ ИШ: ТАЖРИБА ВА АМАЛИЁТ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 46-49.

9. Himmet, K. (2023). HEALTH CARE ENTREPRENEURSHIP: SUCCESS STORIES AND CASE STUDIES. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 50-54.

10. Шолудченко, И. Е. (2023). РОЛЬ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК В УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЕ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 55-59.

11. Дуйсенова, С. М. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 60-65.

12. Norqulov, D. T. (2023). AXLOQSHUNOSLIKDA KASBIY AXLOQ MASALALARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 66-72.

13. Otamurotov, S. (2023). GLOBALLASHUV JARAYONIDA FANNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 73-78.

